XALQ DEPUTATLARI FORISH TUMANI KENGASH
QARORI

2023 - yil 23 - oktabr VI-64-97-3-53-K/23 Forish tuman hokimligi

Forish tumanidagi geografik ob’yektlarga nom berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli Qonuni, “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeiyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli, 2020-yil 20- yanvardagi “Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 34-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi Qonunning 6-, 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Forish tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yilning 4-avgustdagi 08-05988-sonli xati hamda respublika toponomika xizmati Ekspert komissiyasi xulosasi ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Forish tumani aholi punktlarida nomsiz ko‘chalarga yangidan nom beriladigan ko‘chalarning ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi (A.Saidxonov), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi, tuman statistika bo‘limi (T.Qo`narov), tuman qurilish bo‘limi (M.Egamberdiyev), Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali (F.To`ychiyev) barcha mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari bilan birgalikda yangidan nomlangan ko‘chalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish

yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Q.Nazarov) nom berilgan ko‘chalarda yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

5. Tuman qurilish bo‘limi (M.Egamberdiyev) hududlarda yangi nomlangan aholi punktlarining tarkibiy qismlarini yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qaror “Forish tongi” gazetasida chop etilsin va hokimlikning www.forish.jizzax.uz - rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari va tuman hokimining o‘rinbosari A.Saidxonov zimmasiga yuklatilsin.

8. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari tuman kengashi raisi, Tuman hokimi



I.Matiyev

Xalq deputatlari Forish tuman Kengashining
2023-yil 23-oktabrdagi
VI-64-97-3-53-K/23-son qaroriga
1-ilova

Forish tumanida aniqlangan nomsiz ko‘chalarga taklif etilgan, davlat ekspertizasidan qonun talablariga muvofiq deb topilgan ko‘cha nomlari to‘g‘risida

MA’LUMOT

№	Geografik ob’ektning turi	Geografik ob’ektning bog`lanishi	Geografik ob’ektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Hududiy komissiya tomonidan berilgan xaritaning ekspert komissiyasi tomonidan tahlili	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Ko‘cha	Oqtom mahallasi	Nomsiz	Mehnatkash, Saroylik, Zulfizilol	Geografik ob’ektning turi to‘g‘ri **ko‘rsatilgan.**	Takliflardan **Saroylik** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Ko‘cha	O‘zbekiston mahallasi	Nomsiz	Iftixor, Guliston, Birdam	Geografik ob’ektning turi to‘g‘ri **ko‘rsatilgan.**	Takliflardan **Iftixor** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.